

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Veterinariya jarrohligi va akusherlik kafedrasida assistenti v.f.f.d (PhD) S.A.Haydarovanning "Diseases of animals of military service" fanidan "Modern diagnosis and treatment of bone fractures" mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg'ulot ishlanmasiga

TAQRIZ

Laboratoriya mashg'uloti mavzusi fan dasturi va fanning ishchi o'quv dasturi (sillabusi)ga mos keladi, laboratoriya mashg'uloti matni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda uslubiy tomondan to'g'ri taqdimot qilingan. Dastlab mashg'ulotning maqsadi va vazifalari, mashg'ulotning o'qitish pedagogik texnologiyasi berilgan va o'quv faoliyat natijalari ko'rsatilgan va taqdimot qilingan.

Ishlanmada harbiy xizmat hayvonlari orasida uchraydigan suyak sinishlari va ularning klassifikatsiyasi, zamonaviy diagnostika qilish hamda operatsiya texnikasi haqida ma'lumotlar yoritib berilgan. Suyak sinishlarining turlari, kelib chiqish sabablari, klinik belgilari to'g'risida tushuncha berilgan. Sinishlarni davolashda bir qancha olimlarning usullari ko'rsatib o'tilgan.

Yangi zamonaviy pedtexnologiyalar, test savollari, nazorat savollari, vazifa va aqliy hujum savollari, adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Ishlanmada yangi texnologiyalar (aqliy hujum, klaster, kichik guruhlarda ishlash) shuningdek darsda axborot texnologiyalaridan foydalanilib laboratoriya mashg'ulot darsi to'liq taqdimot qilingan.

S.A.Haydarova tomondan tayyorlangan "Modern diagnosis and treatment of bone fractures" mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg'ulot darsi ishlanmasi hozirgi zamon ta'lim texnologiyalari talablariga to'liq javob beradi deb hisoblayman va uni o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

Samarqand viloyati hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi direktori

M.M.Allamurodova



Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Veterinariya jarrohligi va akusherlik kafedrasida assistenti v.f.f.d (PhD) S.A.Haydarovanning "Diseases of animals of military service" fanidan "Modern diagnosis and treatment of bone fractures" mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg'ulot ishlanmasiga

TAQRIZ

Laboratoriya mashg'ulot mavzusi fan dasturi va fanning ishchi rejasiga mos keladi, amaliy mashg'ulot matni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda uslubiy tomondan to'g'ri taqdimot qilingan. Dastlab mashg'ulotning maqsadi va vazifalari, laboratoriya mashg'ulotning o'qitish pedagogik texnologiyasi berilgan va o'quv faoliyat natijalari ko'rsatilgan.

Ishlanmada "Modern diagnosis and treatment of bone fractures" operatsiya ko'rsatmasi, fikrsatiya, og'riqsizlantirish va operatsiya texnikasi ko'rsatib o'tilgan. Nazorat savollari, vazifa va aqliy xujum savollari, adabiyotlar ro'yxati berilgan.

S.A. Haydarovanning "Modern diagnosis and treatment of bone fractures" mavzusidagi laboratoriya mashg'ulotning taqdimoti hozirgi zamon ta'lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o'quv mashg'ulotiga foydalanish uchun tavsiya qilaman.



"Hayvonlar anatomiyasi, gistologiyasi va patologik anatomiya" kafedrasida dotsenti, v.f.n.

B.A.Kuliyev